



UDK:811.512

Nilufar MATXOLIQOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: nilufar260783@gmail.com

THE PROBLEM OF TRANSLATING PHRASEOLOGISMS FROM GERMAN INTO UZBEK IN MASS MEDIA TEXTS

Annotation

This article examines the possibilities of translating phraseological units used in mass media from German into Uzbek. It analyses the linguistic and cultural characteristics of phraseologisms, the methods applied in their translation, as well as the issues of selecting appropriate equivalents. Furthermore, based on a comparative analysis of phraseologisms from the perspective of linguistics and translation studies, the article seeks to find solutions to translation-related challenges.

Key words: Phraseological units, mass media, translation strategies, structural-semantic features, equivalence, cultural context.

ПРОБЛЕМА ПЕРЕВОДА ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С НЕМЕЦКОГО НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК В ТЕКСТАХ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются возможности перевода фразеологических единиц, используемых в средствах массовой информации, с немецкого языка на узбекский. Анализируются лингвистические и культурные особенности фразеологизмов, методы, применяемые при их переводе, а также вопросы выбора адекватных эквивалентов. Кроме того, на основе сопоставительного анализа фразеологизмов с точки зрения лингвистики и переводоведения предпринимается попытка найти решения проблем, возникающих в процессе перевода.

Ключевые слова: Фразеологизмы, средства массовой информации, переводческие стратегии, структурно-семантические особенности, эквивалентность, культурный контекст.

NEMIS TILIDAN O'ZBEK TILIGA OMMAVIY AXBOROT MATNLARIDA FRAZELOGIZMLARNING TARJIMASI MASALASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada nemis tilidan o'zbek tiliga ommaviy axborot vositalarida qo'llaniladigan frazeologik birliklarni tarjima qilish imkoniyatlari o'rganilgan. Unda frazeologizmlarning lingvistik va madaniy xususiyatlari, ularni tarjima qilishda qo'llaniladigan usullar hamda tarjimada muqobil variant tanlash masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada tilshunoslik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan frazeologizmlarning qiyosiy tahlili asosida tarjima muammolariga yechim topishga urinishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Frazeologizmlar, ommaviy axborot vositalari, tarjima strategiyalari, struktur-semantik xususiyatlar, ekvivalentlik, madaniy kontekst.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ommaviy axborot vositalariga oid matnlarda frazeologizmlarning roli tobora ortib bormoqda. Frazeologizmlar tilning emotsional, ekspressiv hamda milliy-madaniy rang-barangligini namoyon etuvchi muhim vositalardan biridir. Ayniqsa, ular nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida o'ziga xos muammolarni yuzaga keltiradi. Shu bois, frazeologik birliklarning struktur-semantik tahlili va ularning tarjima tamoyillarini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqola ana shu masalalarning nazariy jihatlarini yoritishga qaratilgan bo'lib, unda nemis va o'zbek tillarida frazeologizmlarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda tarjimadagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llarini izlashga harakat qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Frazeologiya tilshunoslikning o'ziga xos va murakkab tarmoqlaridan biri bo'lib, u til birliklari orasida o'zining barqarorligi, obrazlilik va ko'chma ma'noliligini bilan ajralib turadigan frazeologizmlarni o'rganadi. Frazeologizm — bu semantik jihatdan yaxlit bo'lgan, barqaror tarkibiy tuzilmaga ega bo'lgan va ko'pincha ko'chma ma'noda ishlatiladigan birliklardir [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Frazeologizmlar tilning milliy-madaniy, emotsional va kommunikativ qatlamlarini mujassam etuvchi asosiy semantik birliklardan biri

hisoblanadi[2]. Ular nafaqat lingvistik struktura sifatida, balki ijtimoiy-madaniy kod, mentalitet, axloqiy qadriyatlar, tarixiy tajriba va xalqning dunyoqarashini ifodalovchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Frazeologizmlarning madaniy funksiyasi ularning ma'naviy-ma'rifiy yuklamasida namoyon bo'ladi. Har bir xalq o'zining tarixiy tajribasi, hayot tarziga xos ijtimoiy-hayotiy tasavvurlar asosida o'ziga xos frazeologik tizimni shakllantiradi [3]. Bu tizim orqali til nafaqat axborot, balki madaniy merosni uzluksiz tarzda avlodlardan avlodga yetkazish vositasiga aylanadi.

Masalan, nemis tilida eine weiße Weste haben ('vijdoni pok bo'lmoq'), mit dem Kopf durch die Wand wollen ('imkonsiz narsani qilishga urinmoq'), jemandem den Rücken stärken ('Yelkadosh bo'lmoq'), 'Orqa bo'lmoq', 'kimnidir qo'llab-quvvatlamok') kabi frazeologizmlar shaxsiy intilish, ijtimoiy munosabat va axloqiy qadriyatlarni anglatadi. Bu birliklar ham madaniy kontekstda shakllangan bo'lib, ularni to'g'ri tushunish uchun shu til jamoasining dunyoqarashi va mentalitetini hisobga olish zarur.

O'zbek tilida esa keng tarqalgan yuzi yorug' bo'lmoq, ko'ngli tog'dek ko'tarilmoq, kuyib-pishmoq kabi frazeologizmlar xalqning emotsional holatini ifodalashda madaniy stereotiplar bilan bog'liq tasviriy ifodalar sifatida

xizmat qiladi. Ular orqasida qadimiy hayotiy tajriba, diniy e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlar, jamiyatdagi axloqiy mezonlar yashiringan bo'ladi.

Frazeologizmlarning kommunikativ funksiyasi esa ular yordamida nutqda konnotativ, ekspressiv va obrazli ifodani yaratishda namoyon bo'ladi. Ular muallif fikrini qisqa, lo'nda, emotsional va estetik jihatdan boy shaklda yetkazish imkonini beradi. Ayniqsa, OAV tilida bu jihat o'ta muhimdir — jurnalistik matnlarda oddiy axborot emas, balki undagi munosabat, baholovchi ohang va ijtimoiy signallar ham muhim rol o'ynaydi.

Masalan, O'zbek OAVlarida uchraydigan ko'zbo'yamachilik qilmoq, og'izda bal, ko'ngilda zahar, yonginasida turib yo'ldan urmoq kabi iboralar matnga baholovchi-emotsional tus bag'ishlaydi va o'quvchi e'tiborini tortishga xizmat qiladi. Bunday iboralar orqali muallif muayyan voqea yoki shaxsga nisbatan o'z pozitsiyasini bilvosita ifodalaydi.

Nemis OAV dan misol:

Vizepräsident J. D. Vance begründete den Kurswechsel mit der Sorge, die USA könnten durch zu strenge Vorschriften ihren technologischen Vorsprung einbüßen. Eine „dumme Politik“ würde es anderen Ländern erlauben, zu den USA aufzuschließen. [Die Zeit. „Wir müssen mehr und länger arbeiten“. 26.07.2025]

Strukturasi:

Ibora ikki komponentdan iborat: „dumme“ (ahmoqona) – baholovchi sifat; „Politik“ (siyosat) – mavhum ot. Ustma-ust qo'shilish orqali kuchli ifoda hosil qiladi. Semantik jihatdan: Ibora siyosiy qarorlarni tanqidiy baholaydi. „Dumme Politik“ nafaqat noto'g'ri strategiyani, balki uning salbiy oqibatlarini ham nazarda tutadi. Uslubiy jihatdan: Publitsistik va siyosiy matnlarda tanqidiy ohangni kuchaytiradi. Qisqa va kuchli tuzilishi orqali e'tibor uyg'otadi. Tarjimasi (o'zbekcha): Odatda „ahmoqona siyosat“ deb tarjima qilinadi. „Dumme“ so'zining baholovchi konnotatsiyasi o'zbek tilida to'laqonli aks ettiriladi. Tarjima strategiyasi: To'g'ridan-to'g'ri ekvivalentlik qo'llanadi. Baholovchi ma'no „ahmoqona“ shaklida yetkaziladi. OAVdagi funksiyasi: Ibora siyosiy qarorlarni tanqidiy baholashda, muhokama va ijtimoiy ongni faollashtirishda xizmat qiladi. O'quvchida hushyorlik va baho berish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xuddi shunday, nemis matbuotida ishlatiladigan der rote Faden verlieren („firk yo'nalishini yo'qotmoq“), die Zügel in der Hand behalten („nazoratni saqlab qolmoq“) kabi frazeologik birliklar mantiqiy axborotni obrazli va tushunarli tarzda yetkazadi. Ular ko'pincha metaforik asosda ishlatiladi va o'quvchida assotsiativ tafakkurni faollashtiradi.

O'zbek OAV dan misol:

Maktablardagi muhit, avvalo, direktorlarning salohiyatiga bog'liq. Shuning uchun direktorlarni lavozimga tayinlashning yangi shaffof tizimi yo'lga qo'yildi. [Yangi

O'zbekiston. ИЖТИМОЙ-СИЁСЫЙ ГАЗЕТА № 3 (1329), 2025 йил 7 январь].

Strukturasi: Ibora ikki komponentdan iborat: „yo'lga“ (harakat yo'nalishi, boshida turuvchi bosqich), „qo'ymoq“ (boshlamoq, ishga tushurmoq). Birlashib, tizimli faoliyatni barqaror boshlash ma'nosini beradi. Semantik jihatdan: „Yo'lga qo'ymoq“ – bu tashkil etmoq, tizim yaratmoq va barqarorlikka olib kelmoq degan ma'noni anglatadi. Ko'pincha yangi tizim yoki tashabbus haqida so'z yuritilganda qo'llaniladi. Uslubiy jihatdan: Ibora rasmiy, ijobiy va davlat siyosatini yoritishga xos ohangga ega. Rasmiy hujjatlar va yangiliklar tilida faol ishlatiladi. Tarjimasi (nemischa): Masalan: Ein neues System wurde erfolgreich in Gang gesetzt. („Yangi tizim muvaffaqiyatli yo'lga qo'yildi.“) Tarjima strategiyasi: Kontekstual ekvivalentlik qo'llanadi. Nemis tilida ushbu ibora „in Gang setzen“ orqali beriladi, bu ham harakatga keltirish, boshlash, ishga tushirish ma'nosini beradi. OAVdagi funksiyasi: Davlat islohotlari, ijtimoiy loyihalar va boshqaruvdagi yangiliklarni ijobiy tarzda yoritish uchun ishlatiladi. O'quvchida ishonch, tizimlilik va rejalilik tuyg'usini uyg'otadi.

Xulosa va takliflar. Frazeologizmlar matnda kontekstga moslashish xususiyatiga ega bo'lib, ularning kommunikativ samaradorligi ulardan foydalanishning o'rinaligi, uslubga mosligi va madaniy mos kelish darajasiga bog'liq. Shu sababli, frazeologizmlarning kommunikativ qiymati ularning grammatik, semantik va stilistik xususiyatlaridan tashqari, ixtisoslashgan nutq vaziyatida berayotgan emotsional-psixologik ta'sirida ham namoyon bo'ladi.

Nemis va o'zbek tillarida frazeologizmlar o'ziga xos umumiylik va farqlarga ega bo'lib, bu ularning struktur-semantik tuzilmasi, madaniy zaminlari hamda kommunikativ vazifalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Har ikkala tilda ham frazeologik birliklarning asosiy belgisi sifatida ko'chma ma'nolilik, konnotativ-emotiv yuklama va grammatik barqarorlik qayd etiladi. Shu bilan birga, bu birliklarning shakllanishida madaniyatlararo tafovutlar, tarixiy-madaniy kontekstlar va xalq og'zaki ijodining ta'siri hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ushbu maqolada keltirilgan nazariy yondashuvlar, frazeologizmlarning struktur-semantik turlari, madaniy va kommunikativ funksiyalari haqidagi tasniflar OAV matnlari asosidagi keyingi amaliy tahlillarga nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, tarjima jarayonida ekvivalentlik, adaptatsiya va kompensatsiya strategiyalarining qo'llanilishi frazeologizmlarning madaniy betakrorligini saqlab qolishda muhim vositadir.

Shu bois, frazeologik birliklarning chuqur strukturaviy va funksional tahlili ularning tarjima tamoyillarini belgilashda nazariy poydevor vazifasini bajaradi hamda nemis-o'zbek tarjima amaliyotida samarali yondashuvlar ishlab chiqish uchun zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin: Schmidt. 2010. S. 241.
2. Schemann H. Synonymwörterbuch der deutschen Redensarten. Stuttgart: Kröner. 2012. S.750.
3. Donalies E. Basiswissen Deutsche Phraseologie. Tübingen: Narr. 2011. S. 126.
4. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Leipzig: Bibliographisches Institut. 2015. S. 300.
5. Berdychowska Z. Phraseologie als Schnittstelle von Sprache und Kultur. Frankfurt am Main. 2016. S. 176.
6. Imyaminova Sh.S. O'zbek tilida frazeologik birliklar. Toshkent. 2005. 160 bet.
7. Umarxo'jayev M. Til va madaniyat munosabati. Toshkent. 2010. 175 bet.
8. Newmark P. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall.1988. P.234.
9. Vinay J. P., & Darbelnet, J. Comparative Stylistics of French and English. Amsterdam: John Benjamins. 1995. P.254.
10. „Yangi O'zbekiston“ gazetasi. 2025. №39
11. „Die Zeit“ gazetasi. 2025. № 47